

IJODIY TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Usmonaliyeva Niluzar Yorqinjon qizi

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktornati

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijodiy topshiriqlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kreativlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, ijodiy topshiriqlar tushunchasi uni ta'lim jarayonidagi o'rni, ijodiy topshiriqlarni pedagogik faoliyatda qo'llashning didaktik imkoniyatlari hususida ham ayrim fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Ijodiy topshiriq, kreativlik, ijodiy topshiriqlarning ta'limdagi o'rni, pedagogik yondashuvlar, o'qituvchi, pedagogik shart-sharoit.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Усмоналиева Нилузар Ёркинджон кизи

Базовая докторант Кокандского государственного университета

Абстрактный. В статье излагаются некоторые размышления о педагогических возможностях развития креативности будущих учителей на основе творческих заданий. В статье также излагаются некоторые размышления о понятии творческих заданий, их роли в образовательном процессе, а также о дидактических возможностях использования творческих заданий в педагогической деятельности.

Ключевые слова. Творческое задание, креативность, роль творческих заданий в образовании, педагогические подходы, учитель, педагогические условия.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING CREATIVITY IN FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF CREATIVE TASKS

Usmonaliyeva Niluzar Yorqinjon kizi

Basic doctoral student of Kokand State University

Annotation. This article presents some thoughts on the pedagogical possibilities of forming creativity in future teachers on the basis of creative tasks. The article also presents some thoughts on the concept of creative tasks, its role in the educational process, and the didactic possibilities of using creative tasks in pedagogical activities.

Keywords. Creative task, creativity, the role of creative tasks in education, pedagogical approaches, teacher, pedagogical conditions.

Kirish. Ijodiy topshiriqlarni turlicha yondashuvlar asosida taqdim qilish mumkin. B.G.Razumovskiy ijodiy vazifani yechish algoritmi o'quvchilarga noma'lum bo'lgan vazifa deb tushunadi.[1.B.272] Bunday muammolarning shartlari niqoblangan bo'lishi mumkin: yetishmayotgan ma'lumotlar bilan, ortiqcha ma'lumotlar bilan yoki o'qituvchi muammoni hal qilishni kutayotgan bilim sohasidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi. "Ijodiy vazifa" ta'rifining an'anaviyligi uning sub'ektivligidadir. Muammoning sharti uni hal qilish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin, ammo uni hal qilish algoritmi hali o'quvchilarga ma'lum bo'lmasa, muammo baribir "ijodiy" bo'lib qoladi. Y.V.Naumenkoning fikricha ijodiy topshiriqlarni nafaqat mavzuni o'zlashtirishning yakuniy bosqichida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan yuqori darajadagi murakkablikdagi o'quv vazifalari, balki o'quv ma'lumotlarini idrok etish va qayta ishlash bilan bog'liq muammoli vaziyatlar sifatida tushunishni taklif qiladi.[2.B.174]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. A.A.Gin ijodiy topshiriqni aniqlashning murakkabligini hisobga olib, "ochiq topshiriq" atamasini taklif qiladi. Ochiq topshiriq - bu talabaning o'zini izohlashi, tushunishi va to'ldirishi kerak bo'lgan noaniq shartga, ko'plab yechimlarga ega bo'lishi mumkin.[3.B.88] R.I. Malafeeva va A.I. Bugayevning fikricha

ijodiy topshiriqlar vazifasini - fizik qonunlar asosida bajarilishi mumkin bo'lgan ma'lum bir talab asosida ishlab chiqilgan, muayyan qonunlari ushbu muammoni hal qilish uchun ishlatilishi kerak bo'lgan jismoniy hodisalarning bevosita yoki bilvosita ko'rsatkichlari mavjud bo'lgan muammoli vaziyatni anglatadi.[4.B.52] I.Ya.Lernerning ijodiy faoliyati tajribasini yetkazishning yagona mumkin bo'lgan usuli. Lerner pedagogik konstruksiyalarni o'qituvchi tomonidan tuzilgan ijodiy topshiriqlar ko'rinishida, mustaqil hal etish jarayonida o'quvchilar ularni yechish yo'llarini topishda tajriba to'plashlarini ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, bilimlarning bir qismi tayyor haqiqatlarni takrorlash jarayonida emas, balki izlanish mahsuli sifatida to'planadi. Ijodiy vazifalarning o'ziga xos xususiyati I.Ya. Lerner shunday deydi: "Ijodiy muammoning har qanday stereotipik muammodan farqi shundaki, stereotipik muammoni hal qilish yo'li ma'lum, ijodiyda esa uni ijodiy izlanish jarayonida topish kerak".[5.B.187]

Z.T.Nishanova o'zining "Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari" nomli doktorlik dissertatsiyasida "ijodiy topshiriqlar bu shaxsni muammoli vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi topshiriq"[6.B.97] deb ta'kidlaydi.

Muhokama va natijalar. U.A.Usmanova o'zining "Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy tasavvurini rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiyasida ijodiy topshiriqlarning bir qancha turlarini keltirib o'tgan va ijodiylik, ijodkorlik va kreativ fikrlashning farqlarini taxlilij jixatdan o'rgangan.[7.B.21] B.Adizov ham ijodiy topshiriqlar ustida tadqiqot olib borib ijodiy topshiriqlarni 3 turini ajratib ko'rsatadi:

1. Muammoni yechishga qaratilgan;
2. Muammoni tahlil qilishga qaratilgan;
3. Faollikni oshirishga qaratilgan.[8.B.182]

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ijodiy topshirish tushunchasining mazmun-mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

- ijodiy topshiriq - murakkab, yaxlit hodisa sifatida yaratiladi va muayyan muammoli vaziyatlarning yechimini aks ettiradi;

- ijodiy topshiriqning hal qilish jarayonida o'quvchi nafaqat ijobiy natijaga erishishi balki salbiy natija ko'rsatishi ham mumkin;

- ijodiy topshiriq asosan muammoli vaziyatning yechimini eng maqbul tarzda asoslashni talab etadi;

- ijodiy topshiriqlar yordamida muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida shaxs o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi va o'zini yaxlit shaxs sifatida o'zgartiradi;

- ijodiy topshiriqlar asosida muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati umumiy kasbiy qobiliyatni anglatadi hamda intellektual va motivatsion rivojlanish darajasi sifatida ishlaydi.

Tadqiqot mohiyatini o'rganish natijasida topshiriqlarni ishlab chiqishga nisbatan ko'plab talablar keltirib o'tilgan. (B.R.Adizov, O.R.Roziqov, E.G'oziyev, A.G'.Hayitov) Biz ijodiy topshiriqlarga qo'yilgan talabni ilmiy jihatdan tadqiq etishga harakat qildi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili ijodiy topshiriqlarga qo'yilgan talablarni ikki qismga ajratish imkonini berdi:

1. Ijodiy topshiriqqa nisbatan qo'yilgan talablar

2. ijodiy mazmundagi topshiriqlar tizimiga nisbatan qo'yilgan talablar. (1-jadval)

1-jadval. Ijodiy topshiriqlarga qo'yilgan talablar

Ijodiy topshiriqqa nisbatan	Ijodiy mazmundagi topshiriqlar tizimiga nisbatan
1) DTS va dastur talabi, 2) Ta'limning didaktik funksiyalaridan kelib chiqadigan talablar, 3) Ijodiy	1) DTS va dastur talabi; 2) Ta'limning didaktik funksiyalaridan kelib chiqadigan talablar; 3) tizim mazmuni

topshiriqning mazmun-mohiyatiga qo'yiladigan talablar	va tarkibiga qo'yiladigan talablar; 4) topshiriqlarning tizimda joylashishiga qo'yiladigan talablar
---	---

Ijodiy topshiriq har doim aniq material asosida quriladi va turli shakllarga ega bo'lishi mumkin. O'quv ijodiy faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida ijodiy topshiriq shaxs va jamoaning tayyorgarlik darajasi va bevosita zaxira imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq materialda mujassamlangan pedagogik maqsad bo'lib xizmat qiladi.

Ijodiy topshiriqlarning tuzilishi masalasi G.Uolles tomonidan tadqiq etilib, quyidagi to'rt bosqichini tavsiflaydi:

1. **Tayyorgarlik:** muammoni shakllantirish va uni hal qilish uchun dastlabki urinishlar.
2. **Inkubatsiya:** vazifadan chalg'itish va boshqa mavzuga o'tish.
3. **Ma'rifat:** muammoning mohiyatini intuitiv tushunish.
4. **Validatsiya:** yechimni sinovdan o'tkazish va amalga oshirish

O'rganishlarimiz natijasida ijodiy topshirilarning mohiyati, avzallik va kamchiliklarini yagona tizimga keltirish imkonini beradi (2-jadval)

2-jadval. Ijodiy topshirilarning mohiyati, avzallik va kamchiliklari

Mohiyati	Avzalligi	Kamchiligi
Ta'lim oluvchilarda mustaqil ravishda o'z bilimlari strukturasi tuzish; muammoni aniqlash, tushunish,	Hayot davomida o'qishni qo'llab-quvvatlaydi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytiradi; tafakkur, xotira, idrok, tasavvur, diqqat, nutqni	Belgilangan maqsadlarga erishishda vaqt ko'lamiga ko'ra uzoq muddat talab

sintezlash, mavjud bilimlari, shuningdek, bilishi lozim bo'lgan, to'xtamga olib boradigan yangi ma'lumotlarni qanday va qay tartibda o'zlashtirishi mumkinligini aniqlash va eng maqbul yechimlarga borish; ijodiy tafakkur, tadqiqotchilik faoliyati, loyihalash, amaliyotga yo'naltirish, nostandart fikrlash, konservativlikdan qochish, yechimlar turfa xilligiga ochiqlik, o'z bilimlaridan qoniqmaslik va ularni rivojlantirishga intilish; jamoada ishlash, o'zgalarni eshitish, o'z fikrini asoslash, mas'uliyat, tirishqoqlik, muvaffaqiyatga eltuvchi ko'nikmalar zanjirini vujudga keltirish; o'quv jarayonini qo'llab-	ifodalovchi bilish jarayonlarini faollashtiradi; axborotlarni qabul qilish, tushunish, xotirada saqlash, bilimlarga aylantirish, qayta ishlash, uzatish kabi kognitiv imkoniyatlarni kengaytiradi; mas'uliyat, mustaqillik, javobgarlikni his qilish, vaziyatni adekvat baholash, dalillar emas, tushunishning muhimligi, rejalashtirish, amalga oshira olish, tirishqoqlik, mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, kasbiy, produktiv, nostandart tafakkur, moslashuvchanlik va mobillikni rivojlantiradi; tadqiqotchilik hamda bilimlarni chuqur o'rganishga sabab bo'ladi; bilimlar, imkoniyatlar, o'zgartirishlar kirita olishga ishonch mustahkamlanadi; kommunikativ ko'nikmalar, jamoada ishlash, uning ajralmas qismi ekanligini his qilish, qadriyatli munosabat, samarali o'zaro ta'sirga kirishishni	qilinadi; jarayonni loyihalashda murakkabliklarga duch kelinadi (ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga moslash, autentik vazifalar tuzish va b.); ta'lim oluvchilarning bilishga doir faoliyatini boshqarish kuchsizligi (chegaralanganligi, mustaqil faoliyat rag'batlantirilishi oqibati) kuzatiladi; an'anaviy o'qitish jarayoniga nisbatan hajm nuqtai nazaridan kamroq material qamrab olinadi; kognitiv yukni to'g'ri taqsimlanishiga
---	--	---

quvvatlash, boshqarish va muvofiqlashtirish orqali o'rganishni osonlashtirish, yechimlarni fikran va amaliy asoslash uchun zaruriy sharoitlar yaratish.	rag'batlantiradi; o'quv materialini (bilimlarni) passiv emas, balki faol o'zlashtirilishi natijasida ta'limning yuqori sifatiga erishiladi; o'qitish maqsadlariga erishish va kasbiy faoliyati (joriy yoki kelajakdagi) mohiyatini chuqur anglash kafolatini oshiradi	doir muammolar ta'lim oluvchilarning qiziqishi va ijodkorligiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimolini vujudga keltiradi
---	---	---

Xulosa. Muhtasar qilib aytganda, pedagogika sohasidagi tadqiqotlar gnostik nuqtayi nazaridan talabalarda kreativ fikrlash hamda ijodiy topshiriqlarni rivojlantirish masalalari u yoki bu mustaqil tadqiqotlarning obyektlari sifatida tanlangan. Ilmiy-pedagogik jarayonlarning mohiyati “kreativlik”, “kreativ fikrlash”, shuningdek, “ijodiy topshiriqlar” tushunchalari negizida ochib berilgan. Biroq, kreativ fikrlash ijodiy topshiriq tushunchalari integral tarzda o'rganilmagan. Tadqiqot muammosini integral o'rganish bo'lajak tarix o'qituvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash tegishli yo'nalishda o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Qolaversa, bo'lajak tarix o'qituvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirishning mazmuni va ustuvor tamoyillarini aniqlashtirish uchun “poydevor” vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Разумовский В.Г. Развитие творческих способностей учащихся в процессе обучения физике: пособие для учителей. М.: Просвещение, 1975. 272 с.
2. Науменко Ю.В. Дидактические условия развития творчества учащихся в учебной деятельности: дис. ... кан. пед. наук.: 13.00.01. Волгоград, 1992. 174 с.

3. Гин А.А. Приемы педагогической техники: Свобода выбора. Открытость. Деятельность. Обратная связь. Идеальность: пособие для учителя. 4-е изд. М.: Вита-Пресс, 1999. 88 с.
4. Малафеев Р.И. Система творческих лабораторных работ по физике в X классе // Физика в школе. 1999. № 6. С. 52-56.
5. Лернер И .Я. Проблемное обучение. М.: Педагогика, 1974. 187 с.
6. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix. fan. dok. ...diss. T.: 2005. - 97 b.
7. Usmanova U.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy tasavvurini rivojlantirish. Avtoref. ped. fan. bo'y. fal. dok. – Toshkent, 2018. – 21 b
8. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007.-182-b.